

JANUBIY KOREYANING YUMSHOQ KUCHI: MADANIYAT TASHQI SIYOSATNING VOSITASI SIFATIDA.

Karimjonova Zebiniso Davronbek qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 3-
bosqich talabasi e-mail: karimjonovazebiniso06@gmail.com tel: +99850-003-71-06*

Annotatsiya: *Globallashib borayotgan dunyoda Janubiy Koreya yumshoq kuch siyosatini keng qo'llamoqda. Ushbu maqola Jozef Nayning "Yumshoq kuch" asariga tayangan holda yumshoq kuch siyosatini atroflicha tahlil qiladi. Yumshoq kuch vositalari sifatida Koreya to'qlini, BTS, K-pop madaniyati, GKS kabi turli dasturlar mutaxassislar maqolalari va to'plamlari, rasmiy saytlarda berilgan ma'lumotlar orqali batafsil o'rganilib, ularning Janubiy Koreyaning madaniy diplomatiyasini kuchaytirishdagi o'rni hamda bu orqali tashqi siyosatga ta'siri batafsil yoritiladi. Janubiy Koreya yumshoq kuch siyosatini qo'llab-quvvatlab kelayotgan institutlar, fondlar hamda turli kompaniyalar Koreya to'qlinini har tomonlama keng yoyilishidagi o'rni keltirilib o'tiladi. Shuningdek, yumshoq kuch siyosatining tashqi siyosatdagi Dokdo oroli kabi masalalarida Koreya madaniyatiga tayanayotganligi berilib, bundagi afzalliklar keltirib o'tiladi. Shu bilan bir qatorda, Janubiy Koreyaning xalqaro imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan turli xil omillar o'rganilib, bu borada oldini oluvchi chora tadbirlar dolzarb ekanligini ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Yumshoq kuch, Koreya to'qlini, Madaniy diplomatiya, Kalmar o'yini, BTS, GKS.*

SOFT POWER OF SOUTH KOREA: CULTURE AS A FOREIGN POLICY TOOL

Karimjonova Zebiniso

*University of World Economy and Diplomacy 3rd year student at the Faculty of
International Relations*

Abstract: *In an increasingly globalized world, South Korea is widely using a soft power policy. This article provides an in-depth analysis of soft power politics based on Joseph Nye's book, Soft Power. As tools of soft power, various programs such as the Korean wave, BTS, K-pop culture, and GKS are studied in detail through expert articles and collections, information provided on official websites, and their role in strengthening South Korea's cultural diplomacy and their influence on foreign policy are explained in detail. The role of institutions, foundations, and various companies in supporting South Korea's soft power policy, which contributes to the widespread dissemination of the Korean wave, will be discussed. Additionally, it is noted that soft power policy relies on Korean culture in issues such as the Dokdo Islands in foreign policy, and its advantages are*

highlighted. In addition, various factors that harm the international image of South Korea are studied, and it is shown that preventive measures are relevant in this regard.

Key words: *Soft power, Korean Wave, Cultural diplomacy, Squid Game, BTS, GKS.*

МЯГКАЯ СИЛА ЮЖНОЙ КОРЕИ: КУЛЬТУРА КАК ИНСТРУМЕНТ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКОГО ИНСТРУМЕНТАРИЯ

Каримжонова Зебинисо

*Университет мировой экономики и дипломатии Студентка 3 курса
факультета международных отношений*

Аннотация: *В глобализирующемся мире Южная Корея широко использует политику «мягкой силы». В данной статье представлен углубленный анализ политики мягкой силы на основе книги Джозефа Найя «Мягкая сила». С помощью экспертных статей и сборников, а также информации, представленной на официальных сайтах, подробно изучаются различные программы, такие как «Корейская волна», BTS, К-поп культура, GKS, как инструменты «мягкой силы», а также подробно объясняется их роль в укреплении культурной дипломатии Южной Кореи и их влияние на внешнюю политику. Показана роль институтов, фондов и различных компаний, поддерживающих политику «мягкой силы» Южной Кореи, в повсеместном распространении корейской волны. Также дается указание на то, что политика «мягкой силы» опирается на корейскую культуру в таких вопросах внешней политики, как остров Токто, и указываются ее преимущества. Кроме того, изучаются различные факторы, оказывающие негативное влияние на международный имидж Южной Кореи, и показывается актуальность превентивных мер в этом отношении.*

Ключевые слова: *«Мягкая сила», «Корейская волна», «Культурная дипломатия», «Игра в кальмара», BTS, GKS.*

KIRISH

Globallashtan dunyoda Jozef Nay tomonidan ta'kidlagan “Yumshoq kuch” atamasi xalqaro munosabatlarda muhim ro'l o'ynamoqda. Jozef Nay yumshoq kuchga shunday ta'rif beradi: “Yumshoq kuch – bu davlatlarning o'z madaniyatini tarqatish, dunyo aholisi ko'z o'ngida yaxshi taasurot qoldirish orqali o'z imdjini mustahkamlash hamda xalqaro tarafdorlar yig'ish demakdir”.

Yumshoq kuch tashqi siyosatda jozibadorlik, rag'bat, ishontirish orqali manfaatni ta'minlashning eng kuchli vositasi bo'lib, XXI – Axborot asri imkoniyatlar davlatlarni hech qanday qurollar va bostirib kirishlarsiz tashqi

siyosatdagi maqsadlariga erishishini boshqa bir yumshoq yo'lini ko'rsatdi.

“Koreya to'liqini”, K-pop, BTS, “Kalmar o'yini” kabi k-dramalar hamda GKS kabi talabalar almashinuvi dasturlari orqali global maydonda kuchli imidj yaratayotgan, madaniy diplomatiyasini har tomonlama kuchaytirayotgan Janubiy Koreya yumshoq kuch siyosatini tashqi siyosatda faol qo'llamoqda. 2025-yil fevral oyi ma'lumotlariga ko'ra Janubiy Koreya Global yumshoq kuch indeksida 120 davlatdan 12 o'rinni egallab turibdi.

Koreya to'liqinining muxlislari soni ham 225 millionga yetib, unga bo'lgan qiziqishni shu darajada keng yoyilishi Janubiy Koreya yumshoq kuchini tezlikda o'sib yuqori ko'rsatkichga chiqishini ta'minladi. [5] Janubiy Koreyani madaniyatini bu darajada keng tarqatish bir qancha siyosiy maqsadlarga asoslangan bo'lib, tashqi siyosatda ko'plab ustunliklari bilan bir qatorda kamchiliklarga ham olib kelmoqda.

Janubiy Koreya yumshoq kuch sifatida ishlatayotgan barcha vositalari hamda ular olib kelayotgan yuqori foyda, tashqi siyosatda, xususan, madaniy diplomatiyani kuchaytirishda va mamlakatning xalqaro maydonda hamkorligini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, BTS, BlackPink hamda “Kalmar o'yini” kabi k-dramalar ulkan tomoshabin to'plab, mamlakatning turizm va eksportga olib kelgan foydasi iqtisodiyotga ulkan daromad olib kelmoqda. Ushbu tadqiqotda Koreya to'liqinining tashqi siyosat manfaatlarini aks ettirishda yumshoq kuch siyosatining kuchli quroli ekanligi ochib berilib, ular olib kelayotgan natijalar batafsil tahlil qilinadi.

Shuningdek, ushbu siyosatni qo'llab-quvvatlayotgan barcha tashkilot hamda institutlar haqida ma'lumot berilib, yumshoq kuch siyosati keng yoyib ulgurgan ta'siriga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan omillar hamda bildirayotgan tanqidlar yoritiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot ishi Janubiy Koreyaning yumshoq kuch siyosatini tahlil qilishda nazariy-tahliliy yondashuvga tayangan bo'lib, nazariy asos sifatida Jozaf Nay tomonidan yozilgan “Yumshoq kuch” kitobi olingan. Jozef Nay Yumshoq kuch tushunchasini bugungi davrdagi ro'lini batafsil tushuntirib berib, yumshoq kuch siyosatini amalga oshirish davlatlarga qanday ustunlik berishi hamda qanchalik dolzarb ekanligini batafsil bayon qilgan.

Siyosatchilar, mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalarni tahlil qilish orqali yumshoq kuch vositalarining shakllanishi, siyosatdagi ulkan o'rni hamda ta'sir doiralari keng o'rganiladi.

Yumshoq kuch obyekti sifatida Koreya to'liqini, K-pop, “Kalmar o'yini”, GKS kabi ta'lim dasturlari olinib, ular yumshoq kuch siyosatini kuchaytirish yo'lida olib kelayotgan foydalari rasmiy saytlardagi statistik ma'lumotlarga tayanib aniqlanadi.

Ushbu siyosatni qo'llab kelayotgan hukumat, institut va boshqa tashkilotlar mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalarda keltirilgan ma'lumotlar orqali o'rganiladi. Shuningdek, maqola solishtirma-tahliliy metodikani ham qisman o'z

ichiga olib, bu orqali Koreya to'liqini turli vaqtlar kesimidagi rivojlanishiga yuzlangan holda hozirgi pozitsiyasi hamda yutuqlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari. "Koreya to'liqini" nomi ostida dunyo bo'ylab harakat qilayotgan Janubiy Koreyaning madaniyati Yumshoq kuchning eng muhim vositasidir. K-pop, BTS hamda "Kalmar o'yini" filmlari orqali butun dunyo bo'ylab ulkan tomoshabin to'plagan "Koreya to'liqini"ni dunyoning barcha mintaqalarida odamlar ko'nglini zabt etib ulgurdi.

Dastlab Tayvanda ham "Tayvan to'liqini" nomi ostida bir qancha guruhlar mashhurlikka erishishi Koreya K-pop madaniyati yo'lida yaxshigina to'siq edi. Ammo 2004-yil Koreya to'liqini "Qish sonatasi" dramasini o'zi bilangina uni ortda qoldirib, Yaponiyaning o'zidagina \$3.5million dollar daromad keltiribgina qolmasdan mamlakat imidjining shakllana boshlashida muhim qadam bo'ldi. [11, 69-bet] Bu dramada namoyish etilgan Koreyaning g'arblashgan hayot tarzi o'sha darda Yaponiyada odamlar hayot tarziga katta ta'sir o'tkazgan. Keyinngi yillarda ekranlarga chiqarilgan "Saroy javohiri" ayniqsa Koreys madaniyatiga bo'lgan qiziqishni yanada orttirgan, nafaqat Osiyo, balki Yevropa va dunyoning boshqa mintaqalarida sevib tomosha qilingan.

Dramada qat'iy yondashilgan kiyimlaridan tortib foydalangan buyumlarigacha chet el auditoriyasida Koreya tarixiga va ayniqsa tarixiy to'y marosimlari orqali madaniyatiga qiziqishni orttirgan. Yuqorida keltirib o'tilgan k-dramalar Janubiy Koreyaning imidjini shakllanishida dastlabki qadam bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, yaqin 4 yilda dunyo ekranlarida katta mashhurlikka erishgan "Kalmar o'yini" uni yanada cho'qqiga ko'tardi.

Kalmar o'yinining birinchi fasli 2021-yil ekranga chiqarilgan bo'lsa, dastlabki 28 kunda 82 million tomosha qilishlarga erishdi. Drama mashhurligi bir zumda ko'tarilib, 94 ta mamlakatda birinchi o'ringa ko'tarildi, xususan, Kalmar o'yini AQSH da birinchilikka erishgan birinchi Janubiy Koreya dramasi sifatida e'tirof etildi. [14, 2-bet] Uning ikkinchi fasli esa rekord darajaga ko'tarilib, Netflix ning eng ko'p tomosha qilingan kontentiga aylandi. Ikkinchi fasli o'tgan yilning so'nggi haftasida sahnalarga chiqqan bo'lsa, dastlabki 11 kun ichida 126.2 million tomosha qilinishlarga erishib, Janubiy Koreya imidjini xalqaro maydonda yuqori darajada ko'tarib berdi. [15]

Felisa Istad Koreya to'liqinini "Madaniy imperializm" sifatida ham talqin qiladi. Darhaqiqat, Janubiy Koreyaning yumshoq kuch siyosatini madaniy diplomatiya usullaridan foydalangan holda amalga oshirayotgan madaniy imperializmga qiyoslasak bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan k-dramalar, shuningdek, k-pop madaniyati, BTS hamda GKS kabi talabalar almashinuv dasturlari madaniy diplomatiyani kuchaytirishdagi eng muhim vositalardandir.

1967-yilda tashkil etilgan, Xalqaro ta'lim milliy instituti (NIIED) tomonidan boshqarilib kelinayotgan Global Koreya stipendiya dasturi (GKS) kabi talabalar

almashinuv dasturlari ko'plab talabalarni Koreyaga jalb qilib, uning madaniy diplomatiyasini kuchaytirishda katta ustunlik bermoqda. 2024-yil hisobi bo'yicha 2 200 nafar talaba ushbu dasturni yutgan holda Koreyada ta'lim olishga muvaffaq bo'lib, bu yilgi hisob bo'yicha esa 1 820 nafar talaba Koreyaga ushbu dastur orqali tashrif buyurishi kutilmoqda. [16] Ushbu dastur orqali kelgan talabalar Janubiy Koreyaning madaniy diplomatiyasini kuchaytirib, Koreya to'liqlarini yanada keng yoyishga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreyaning nafaqat dramalari, balki BTS hamda Blackpink kabi guruhlar orqali ham yumshoq kuchini keng yoyib iqtisodiyotga ulkan daromad olib kelmoqda. BTS, Blackpink kabi guruhlarini tashkil etishda maxsus yondashilgan bo'lib, o'zgachaligi bilan boshqa guruhlardan ajralib turishi barchaga ma'lum. Bu yerda nafaqat ular ijro etadigan qo'shiqlar, balki qo'shiqchilarning mashhurligi hamda imidjini ham ko'tarish e'tiborga olingan.

Hyundai iqtisodiy tadqiqot institutining 2018-yilda bergan ma'lumotiga ko'ra, BTS Janubiy Koreyaning turizm, moda, kosmetika, ovqat va boshqa mahsulotlar eksportiga Koreya valyutsida 4 trillion daromad olib kelib, mamalakat GDP sining 0,3 % ni tashkil etgan. BTS guruhi yana qayta yig'ilganidan so'ng, shu yil holatiga Koreya valyutasida 1.2 trillion daromad olib kelishi kutilmoqda. [13] Bu esa mamlakat iqtisodiyotini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreyaning yumshoq kuchini yoyishga qaratilgan harakatlari bir qancha institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Ulardan biri 2009-yildan beri faoliyat yuritayotgan Prezident huzuridagi milliy brendlashtirish kengashi bo'lib Koreyaning xalqaro imidjini barpo etish hamda tarqatishga qaratilgan harakatlarni rivojlantirib kelmoqda.[9, 58-bet] Bundan tashqari Koreya madaniyati va axborot xizmati (KOCIS) 1971-yil tashkil etilgan bo'lib, dastlabki kuchli qo'llab-quvvatlovchi vazifasini bajargan va keyinchalik xalqaro Koreya madaniyat markazlari ochish hamda ularni har tomonlama moliyalashtirish ishlarini olib borgan.

Bundan tashqari ko'plab biznes va kompaniya egalari ham Koreya to'liqlarini qo'llab-quvvatlamogda. 2015-yilda hukumat tomonidan tashkil etilgan Madaniyat va ijodiy integratsiya markazi Janubiy Koreya konglomeratlaridan biri CJ group bilan hamkorlik qilgan holda madaniyatga oid kontentlar chiqarish hamda moliyalashtirishda katta ro'l o'ynaydi.[9, 60-bet]

Koreya kontentini moliyalashtirishda Netflix ham katta ro'l o'ynab, 2015-2022 yillarda \$700 million dollar mablag' ajratgan. [14, 3-bet] Xususan, "Kalmar o'yini"ning ikkinchi faslini o'ziga AQSH dollarida 68-69 million atrofida mablag' sarf qilgan.[17]

Shuningdek, Qirol Sejong universiteti ham Koreya madaniyati hamda tilini tarqalishida 90 dan ortiq xalqaro universitetlar bilan o'zaro shartnoma va hamkorlik o'rnatgan holda katta hissa qo'shgan. [9, 61-bet]

Shu tariqa, Koreys tilidagi ko'plab qo'llanmalar, kitoblar, CD lar dunyoda

boshqa universitet kutubxonalarida ham ko'paymoqda.

Koreya to'liqini dastlab tashkil topgan paytlarda Yaponiya hamda Xitoyda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan va keyinchalik Osiyo Yevropa, Amerika, Afrikaga yetib borib, 2016-yil holatiga ko'ra ushbu hududlarda 20 ta madaniy markazi faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda esa bu markazlar miqdori 37 tani tashkil etmoqda. Janubiy Koreya Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham katta ta'sirga ega bo'lib, Malayziya, Indoneziya, Tailand kabi davlatlar bu borada yetakchi o'rinda turadi.

Janubiy Koreya ayniqsa, so'nngi yillarda Malayziya bilan hamkorlikni kuchaytirib, 2024-yil 25-noyabrda ikki davlat prezidentlari uchrashib, strategik hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida shartnoma imzolashdi. [12] Bunda, xususan, madaniya va ta'lim almashinuvi va turizm alohida ta'kidlab o'tilib, bu sohalarni har tomonlama kuchaytirish dolzarbligi aytib o'tildi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Globallashgan dunyoda Koreya madaniyati yoki boshqa texnologik yutuqlaridan ko'ra urush yoki sanksiya usulini tanlashi ancha xavfliroq. Darhaqiqat, tashqi siyosatdagi manfaatlarni amalga oshirishda yumshoq kuchdan foydalanish eng to'g'ri yo'ldir. Bu borada yuqorida ta'kidlab o'tilgan "Kalmar o'yini" Janubiy Koreyaning imidjini xalqaro maydonda yuqori pog'onaga ko'tarib ko'plab davlatlarga yetib borgan va o'sha davlatlarda yuqori o'rinlarni egallaganligi uning boshqa davlatlar tomonidan ham tan olinayotganligining yaqqol belgisidir. Jozef Nay ta'kidlagan yumshoq kuch siyosatida eng muhimlaridan biri bu – davlatning xalqaro maydondagi imidji birgina k-drama orqali ham ko'tarilganligi bu borada yumshoq kuchning qay darajada ishlayotganligini ko'rsatadi.

Buning negiziga qaraydigan bo'lsak, dramada namoyish etilgan barcha texnologik qurilma va innovatsiyalar uchinchi dunyo mamlakati deb hisoblanadigan Koreyaning global maydonda texnologik jihatdan kuchli davlat ekanligini namoyish etishdagi manfaatini ham ko'rishimiz mumkin.

Drama namoyish etilganidan so'ng namoyish etilayotgan o'yingohlar, ekskursiyalar, tadbirlar bularning barchasi nafaqat Koreyaning ta'sirini kuchaytirmoqda, balki iqtisodiyot va turizmga ulkan daromad olib kelmoqda. Bundan tashqari BTS ning dunyo bo'ylab tashkil qilgan konsertlari va erishgan mashhurligi nafaqat iqtisodiyotni balki mamlakatning xalqaro maydonda siyosatga ham ta'sirini ko'rsatmoqda.

BTS guruhining UNICEF xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda boshlagan "Love myself" ("O'zimni sevaman") loyihasi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.[18] Bu asosan BTS ning yoshlarni o'z qadr-qimmatini bilishga chaqirig'iga yo'naltirilgan bo'lib, bu Koreyaga yumshoq kuch siyosatini yanada kuchaytirish imkonini beradi.

Zero, J.Nay ta'kidlaganidek yumshoq kuch negizidagi ishontirish va rag'bat hech qanday qattiq kuch vositalarisiz madaniyatning o'zi bilangina erishilmoqda.

Koreya to'liqini orqali xalqaro maydonda obro'si oshishi Janubiy Koreyaga xalqaro hamkorligini ham kuchaytirish imkonini berdi, zero hamkorlik davlat tashqi

siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida Malayziya bilan hamkorlikni olamiz. Malayziya bilan munosabatlarni tashkil etishda dastlab Yaponiya mustamlakaligida orttirilgan o'xshash tajriba va Shimoliy Koreya kuchaytirayotgan yadro dasturi xavfi asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, hozirda yuqorida ham keltirib o'tilganidek ikki davlat o'rtasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, madaniyat va ta'lim almashinuvini kengaytirish maqsadida strategik shartnomalar imzolanmoqda. Bunday hamkorlikni kuchaytirish Jozef Nay ta'kidlab o'tganidek, mamlakatning tashqi siyosatida ko'plab ustunliklar beradi. Jozef Nay buni Amerika misolida ham ko'rsatib bergan.

Xususan, bu borada Dokdo masalasi tashqi siyosatda yumshoq kuchning ta'sirini yaqqol ko'rsatib beradigan dalil bo'lib xizmat qiladi. Dokdo oroli Yaponiya hamda Janubiy Koreya o'rtasida tortishuv masalasi bo'lib, har ikki davlat ham bu orolni o'ziniki ekanligini e'tirof etadi. [10, 25-bet] Janubiy Koreya bu yo'lda Koreya to'lqinidan faol foydalangan holda ko'plab Dokdo oroli haqidagi Koreyaning milliy g'ururini e'tirof etishga qaratilgan insholar tanlovlari va turli xil ekskursiya sayohatlar uyushtiradi. Hatto bu bo'yicha o'quv dasturlariga ham kiritilgan bo'lib, chet el talabalari uchun ham maxsus sayohatlar tashkil etiladi. Bundan tashqari, ko'plab qo'shiqchilar ham qo'shiqlarida Dokdo haqida kuylashib, hattto dramalarda ham namoyish etiladi. Bu esa Xalqaro maydonda orolning haqiqiy egasi kim ekanligini ko'rsatishda Janubiy Koreyaga katta ustuvorlik bermoqda. Bu borada Yaponiya hukumati tomonidan bir qancha tanqidlar berilishiga qaramasdan, madaniyati orqali ancha shuhrat yig'gan Janubiy Koreyaga xalqaro maydonda ustuvorlik ta'minlaydi. Zero ko'plab insonlar bu tanlov-u ekskursiyalardan so'ng orolning Janubiy Koreyaga tegishli ekanligiga shubha bildirishmaydi.

Ammo hozirgi globallashuv Koreya pop madaniyatini keng tarqalishiga imkoniyat yaratgan bir payta Koreya imidjini yomonlashtiradigan boshqa xabarlarni ham keng tarqalishiga sababchi bo'lmoqda. Misol uchun, "Burning Sun Scandal" nomli janjalni oladigan bo'lsak, to'polonda nafaqat K-pop vakillari balki politsiya ham aralashganligi katta janjalga aylanib ketganligi Koreya imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatib 2019-yil hisobi bo'yicha 30 o'ringa tushurib yuborgan. [4, 5-bet] Shundan so'ng, Koreyaga nisbatan ishonch yo'qolib, ko'plab ota-onalar farzandlarini Koreyaga o'qishga jo'natmasdan qo'yishgandi. Bundan tashqari, shu yil mart oylarida boshlangan Koreyaning eng mashhur aktyorlaridan biri Kim-so-hyun va aktrisa Kim-sae-ron haqidagi xabarlar, aktyorga qo'yilgan ayblovlar nafaqat aktyor obro'siga balki Janubiy Koreyaning xalqaro imidjiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. [7] Koreya imidjiga salbiy ta'sir qiladigan barcha omillar to'g'ridan to'g'ri yumshoq kuch siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bu esa Koreyani nafaqat yumshoq kuchini faol qo'llashi balki bung salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday axborotlarga qarshi chora-tadbir ko'rishi dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Xulosa

Globalashuv Janubiy Koreya uchun Koreya to'liqini orqali yumshoq kuchini har tomonlama kuchaytirish imkonini yaratdi. K-pop, BTS, "Kalmar o'yini" kabi K-dramalari orqali katta iqtisodiy foyda olib kelayotgan bir paytda, GKS kabi talaba almashinuv dasturlari, yozgi maktablar, ekskursiyalar, tanlovlar orqali madaniy diplomatoyasini kuchaytirib, tashqi siyosatda o'z maqsadlarini amalga oshirib kelmoqda.

Ammo axborot asri imkoniyatlari nafaqat Koreya to'liqini keng yoyilishiga, balki mamlakat imidjiga salbiy ta'sir olib kelishin mumkin bo'lgan turli xabarlar, janjallarning ham keng tarqalishiga sababchi bo'lmoqda. Ammo shunga qaramasdan, Janubiy Koreya yumshoq kuchning barcha vositalaridan, xususan, madaniyatini faol qo'llagan holda xalqaro maydonda siyosiy ta'sirini oshirib, kuchli xalqaro imidjga hamda davlatlararo kuchli hamkorliklarga ega bo'lmoqda, va bu Koreyaga yuzaga kelgan va keladigan holatlar-u o'z oldiga qo'ygan maqsadlarida kuchli tayanch bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nye, J. S. (2004). **Soft power: The means to success in world politics** (Yumshoq kuch: Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari, tarj. O. Abdullayev). Toshkent: Trust and Support. <https://asaxiy.uz/uz/product/jozef-nay-yumshoq-kuch-jahon-siyosatida-muvaffaqiyatga-erishish-vositalari>
2. Jang, G., & Paik, W. K. (2012). Korean wave as a tool for Korea's new cultural diplomacy. *Advances in Applied Sociology*, 2(3), 196–202. <https://doi.org/10.4236/aasoci.2012.23026>
3. Huang, Y. (2022). Analysis on South Korean soft power—Taking BTS, Parasite and Squid Game as examples. In *Proceedings of the 2022 International Conference on Comprehensive Art and Cultural Communication (CACC 2022)* (Vol. 663). Atlantis Press. <https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>
4. Guluzade, N. (n.d.). Soft power as a foreign policy tool of the Republic of Korea: Focusing on the side effects. 16th Korean Studies Graduate Students Convention. Duisburg-Essen University, MA Contemporary East Asian Studies. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=2988227595730942228&btnI=1&hl=en>
5. Brand Finance. (2025, February 25). Hallyu wave lifts South Korea in Global Soft Power Index 2025. <https://brandfinance.com/press-releases/hallyu-wave-lifts-south-korea-in-global-soft-power-index-2025>
6. Editorial Team. (2024, April 24). K-pop is making billions for South Korea. Asia Fund Managers. <https://asiafundmanagers.com/kpop-and-economic-impact-on-south-korea/>
7. Park, J. (2025, March 31). How does South Korea's society treat celebrities in crisis? A new case raises questions. AP News. <https://apnews.com/article/south-korea-entertainment-kim-saeron-kim-soohyun-eb8a38533334d0b331e6febb0ea3alea>
8. Bader, M. (2016). Global Korea Scholarship (GKS) as public diplomacy. In K. J.

Ayhan (Ed.), Korea's public diplomacy (pp. 81–100). Seoul: Hangang Network; Seoul National University Press. Retrieved from https://www.academia.edu/31539291/Koreas_Public_Diplomacy

9. Istad, F. (2016). A strategic approach to public diplomacy in South Korea. In K. J. Ayhan (Ed.), Korea's public diplomacy (pp. 49–80). Seoul: Hangang Network; Seoul National University Press. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/318492917_Koreas_Public_Diplomacy

10. Ordaniel, J. (2016). Balancing national interest and national pride: Korea's Dokdo-related public diplomacy, 2008–2015. In K. J. Ayhan (Ed.), Korea's public diplomacy (pp. 25–48). Seoul: Hangang Network; Seoul National University Press. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/318492917_Koreas_Public_Diplomacy

11. Sinsomboonthong, T. (2020). Cultural hybridity of K-Pop music: From the west to South Korea, from South Korea to the globe. *Journal of Language and Culture*, 39(2), 65–83. <https://so03.tci-thaijo.org/index.php/JLC/article/view/248684>

12. Prime Minister's Office of Malaysia. (2024, November 25). Malaysia, South Korea elevate relations to strategic partnership. <https://www.pmo.gov.my/2024/11/malaysia-south-korea-elevate-relations-to-strategic-partnership/>

13. Moneycontrol. (2024, April 24). BTS could generate trillions with 2025 comeback and concerts: report. <https://www.moneycontrol.com/entertainment/bts-could-generate-trillions-with-2025-comeback-and-concerts-report-article-13131388.html>

14. U.S. Department of Justice. (2021, October 15). <https://efile.fara.gov/docs/3327-Informational-Materials-20211015-314.pdf>

15. Variety. (2025). 'Squid Game' Season 2 Week 2 ratings: 126.2 Million Views in 11 Days. <https://variety.com/2025/tv/news/squid-game-season-2-week-2-ratings-views-1236268845/>

16. GKSScholarship.com. (n.d.). GKS scholarship: Graduate. <https://gksscholarship.com/tag/gks-scholarship-graduate/>

17. Squid Game Wiki. (n.d.). Season 2. https://squid-game.fandom.com/wiki/Season_2?utm_source=chatgpt.com

18. UNICEF. (n.d.). BTS and Big Hit renew commitment to “LOVE MYSELF” campaign to support UNICEF in ending violence <https://www.unicef.org/press-releases/bts-and-big-hit-renew-commitment-love-myself-campaign-support-unicef-ending-violence>